

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни “**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

Унинг боши яқинига бош уриб таърихни ёзди:

“Фирдавс жаннатин ёнидан бир эшик очилганини кўргин”.

1227/1812

(Таржима турли даврларда бир қатор шарқшунослар: Б. Қазоқов, Б. Бобожонов, F. Раззоков ва К. Раҳимов томонидан амалга оширилган)

2020 йил ушбу табаррук қадамжой истеъдодли усталар томонидан тўлиқ реставрация қилиниб, зиёратчилар учун обод масканга айлантирилди. Турки Жанди мақбараси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги 846-сонли қарорига асосан давлат муҳофазасига олинган. 2019 - 2020 йилларда обод маҳалла дастури доирасида “Барака Ризо Қурувчи” МЧЖ томонидан кенг кўламли реставрация тиклаш ишлари амалга оширилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Т., 2015
2. Тұхфат аз-зоирин. (перевод с таджикского-персидского, предисловия комментарии-Х.Тураева). “Splendid”, Т., 2021.
3. Тарихи Муллозода. (сўз боши, форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Б. Аминов). “Янги аср авлоди”, Т., 2009 й.
4. Насабнома. Т., 2017 й.
5. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. “Наука”. М., 1976
6. Некрасова Е.Г. Историческая топография южной части Бухары (район некрополя Турки-Джанди) // «Археология и нумизматика и эпиграфика Средней Азии». Материалы научной конференции, посвященной 60-летию со дня рождения доктора исторических наук Бориса Дмитриевича Кочнева. Самарканд. 2000
7. Кочнев Б.Д. Турки Джанди в Бухаре. Заключенные по шрафтам. Архив Глав НПУ МК Узб., рукопись №Б 3565/К76. Ташкент. 1973

HAZRAT KA‘BUL AHBOR QADAMJOSI XUSUSIDA

**Rajabov Oybek Iskandarovich
BuxDU, katta o‘qituvchi**

Xalqimiz ko‘p ming yillik tarixi davomida rivojlanib, madaniyati yuksaldi. Betakror va qadimiylar yurt o‘zining boy tarixiy, moddiy va ma‘naviy merosida buyuk allomalariga ega bo‘ldi. Ko‘hna Buxoro tarixi asrlar silsilasida mudom yuqori mavqeda turgan va sharif shaharda yetishib chiqqan buyuk allomalarining boy ilmiy merosi, o‘lkani butun dunyoga tanitgan. Buxoroyi Sharifning 3000 yillik tarixi mobaynida ko‘plab allomalar yashab ijod etdi. Dunyoga tanigan allomalarining ma‘naviy merosi, ibratli hayot yo‘li, odobi, kasbu-kori, ilmu ma’rifati, tabarruk qadamjolar davrlar osha o‘z ahamitini saqlab qolmoqda.

Xoja Ka‘bul Ahbori vali ziyyaratgohi Buxoro viloyatining Kogon tumani To‘dako‘l yaqinidagi «Xo‘jkab» qishlog‘ida joylashgan. Ziyyaratgoh cho‘l hududida joylashgan bo‘lib, yer usti yumshoq qum, ostki qismi esa juda qattiq qatlamdan iborat. Qadimda bu joylar (Zarafshon va Qashqadaryo daryolarining qo‘silgan joyi “quymozor” massivi) juda obod bo‘lgan. Hududdagi tepalik qadimgi davrda katta bir qal‘a bo‘lgan. Qal‘a atrofi bog‘lardan iborat bo‘lib, dehqonchilik qilish uchun serhosil yerlar, chorvachilik qilish uchun sharoit qulay bo‘lgan. Maskan Buyuk ipak yo‘lida joylashganligi sababli xalqi juda boy va o‘ziga to‘q bo‘lishgan. Bu yerda karvon saroy bo‘lib, qo‘shti viloyatlardan kelgan savdogarlar shu karvonsaroyda tunab, so‘ngra yo‘lga chiqishgan. Xalqi ma’rifatli va madaniyatli bo‘lgan. 2008-2009 yillarda maskanda ziyyoratchilar va hududda faoliyat olib boruvchilar uchun tahoratxona tiklash jarayonida yer kovlanganda qadimgi uy-joylar, binolarning qoldiqlari topilgan.

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

Hazrat Ka’bul Ahbor - tobe’yn, valiyulloh, olim hisoblanadilar. Bir necha kitoblar muallifi sifatida mashhur. Manbalarda aytilishicha Hazrat Ka’bul Ahbor Muhammad s.a.v. tirikliklari vaqtida islomni qabul qilmagan. Ka’bul Ahbor Hazrat Umar r.a. va Hazrat Oyshadan hadis rivoyat qilganlar. Ibn Sa’dning rivoyat etishicha, Ka’bul Ahbor ulkan olim bo‘lib, o‘zgartirilmagan, asl Tavrotdan qissalar aytib berarkan. Ka’bul Ahbor: “Yarg‘uchoq o‘z o‘qi atrofida aylangan kabi yer ham o‘z o‘qi atrofida aylanadi”- degan.

Abu Homid G’azzoliyning “Mukoshafatul qulub” nomli asarlarida Kabul Ahborning hikmatlari va shu kitobning oxirida tarjimai hollari berilgan: “Ka’bul- Ahbor: to‘la ismi Abu Ishoq ibn Moti’ ibn Hoysu. Paygambarimizdan keyingi ikkinchi xalifa Umar r.a. zamonlarida musulmonlikni qabul qilgan yamanlik yahudiylardan bo‘lib, arablardagi isroiliy va musulmon rivoyatlarining eng eski roviysi hisoblanadi. Muoviya Suriya voliysida bo‘lgan davrda saroyda mudarrislik qilar va voliy maslahatchisi edi. Vafoti melodiy 652 yildir¹. Ka’bul Ahbor 104 yil umr ko‘rgan, qabrlari Xims (Suriya)dadir.

Tepalikdagi maqbara ichida 14 metrli sog‘onada Ka’bul Axborning (VII-VIII asrga oid) qabrlari bo‘lib, u kishining oyoq uchlarida xizmatkorlari Abdulloh Zohid ibn Asad dafn qilinganlar. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitoblarida yozilishicha, Buxoro fathi arablar tomonidan 673 yilda boshlangan. Ya’ni Ka’bul Ahbor vafotlaridan 21 yil o‘tgandan keyin arablar Buxoroga kelgan. Shu bois Kogon tumanidagi Xoja Ka’bul Ahbor ziyoratgohi qadamjo sifatida keyin barpo etilgandir. Maqbara oldida masjid qurilgan bo‘lib, masjidning quyosh chiqar tomonida allomaning ikkinchi xizmatkorlari Mahmud ibn Hamid dafn qilinganlar. Masjidning orqasida esa maydoni 40-50 hektar keladigan qabriston bor. Bu sahroda katta hajmdagi qabristonning qanday vujudga kelganligi har bir insonni qiziqtirishi tabiiy. Qabristonning vujudga kelish sabablariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu yerdagi ko‘plab marmardan yasalgan qabr toshlari bu yerda 1000 yildan buyon insonlar dafn etilayotganligidan guvohlik beradi.

Qabr toshlarida turli sura va oyatlar, dafn qilinganlarning ismi sharifi bitilgan. Toshlardagi yozuv sanalari esa qariyb ming yillik muddatni ko‘rsatadti. Hatto ba’zi toshlarni juda qadimiyligi, uzoq vaqt o‘tganligi bois ko‘pgina harflari ko‘chib tushgan. XI asrdan boshlab dafn etilgan qabrlarda yosh bolalar va erkaklar mozori ustidagi toshlarga “bobo” (jumladan, Abdurahmon bo‘lsa - Bobo Abdurahmon), qiz va ayollar mozori ustidagi toshlarga “momo” (Jumladan, Hanifa bo‘lsa - Momo Hanifa) deb bitilgan². Qabristonning umumiy maydoni taxminan 50 hektardan kattoroq bo‘lib, maskur hududda o‘rta asr, rivojlangan o‘rta asr hamda hozirgi davrgacha mayitlar qo‘yilmoqda. Rus bosqinidan keyin tepalik va uning atrofidagi binolar buzib tashlangan, maskan aholisining ko‘pchiligi Qashqadaryo viloyati, Muborak tumani Qorliq mahallasiga ko‘chib ketgan. Hozirgi davrgacha ham ushbu mahalla vakillari o‘zining avlodlarini shu maskanga keltirib dafn etishadi³.

XX asrning 70 yillaridan boshlab Kogon shahar “JBI” (Jelezobetonniy izdeliya i konstruksiya) tashkiloti xodimlari (boshqa millat vakillari) vafot etgandan so‘ng shu manzilda ko‘milgan (bu sobiq tuzum davridagi siyosiy holat, chunki musulmon va boshqa din vakillari bir qadamjoda dafn etilmaydi). Qadamjoning shimoliy qismida 2007-2008 yillarda Kogon lo‘lilariga ham joy ajratilgan. Ammo ba’zi bir sabablarga ko‘ra ular hozirda olamdan o‘tgan qon-qarindoshlarini Kogon tumanidagi Xo‘ja bargi qadamjosida dafn etishmoqda.

Qadamjodagi eski masjid, gumbaz va ko‘plab tarixiy maskanlar 1987 yil buzib tashlangan. Hazratning qabrlari 1995 yilda qayta ta’mirlangan. Shuningdek, 2004 yil Marat Sharipov tomonidan qadamjodagi 14 metrlik qabr chet ellik ekspedisiya vakllari bilan zamonaviy texnik aspoblar orqali tekshirilgan hamda qabrda 9 metrlik odam yaxlit suyak qoldiqlari borligi aniqlangan. Mozorda haqiqatdan ham odam ko‘milgan degan xulosaga keltingan. 2008-2009 yillarda maskanda ko‘plab qurilish ishlari hashar yo‘li bilan amalga oshrilgan, hudud ancha obod

¹ Абу Ҳомид Фаззолий “Мукошафатул қулуб”, Т., “Адолат”, 2002 йил. 212-саҳифа. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Тошкент, 2012, -Б.13-14., Н.Йўлдошев, Ҳ.Қурбонов Бухоро шахрига унинг атрофидаги зиёратгоҳлар тарихи. Бухоро, 2001 йил. –Б.90-94.

² Дала тадқикотлари. 2022 йил, декабр. “Сараланган саҳифалар”, “Мовароуннахр”, Т. 2003 йил. 90-саҳифа

³ Дала тадқикотлари. 2023 йил, феврал.

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

qilingan, mozor hamda ziyoratgoh binolarining atrofi o‘rab olingan. Hozirgi kunda mazkur qadamjoda Anvar To‘qov imom xatiblik qilib kelmoqdalar.

Ulug‘ qadamjoni obod qilish, tariximizni qayta tiklash va uni teranroq anglash, yoshlarimiz ma‘naviyatini yanada yuksaltirish yo‘lidagi bir sa‘y-harakat bo‘lib, ming yillardan qon-qonimizga singib ketgan dinu-diyonatni, urf-odat, ezgu amallarni davom ettirish, xalqning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Tarix xalq ma‘naviyatining asosi, uni asrash har bir insonning burchidir.

11. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигига ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
12. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос хуқукининг амалда қўлланиши. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
13. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 70-70.
14. Temirov, F. Of the journalistie work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. *Irish Interdisciplinary of Science & Research (IIJSR) Vol*, 6, 12-17.
15. Темиров, Ф. У. (2023). Жизнь И Научно-Творческая Деятельность Садриддина Айни В Трудах Его Современников. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(2), 128-134.
16. Темиров, Ф. У. (2022). Мустақил ўзбекистонда инсон хуқуклари ва қадрини улуғлаш—энг олий немат. *Academic research in educational sciences*, (1), 184-188.
17. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ—ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
18. UMEDOVICH, T. F. (2021). THE PRESS ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 57-62.
19. Temirov, F. (2024). SADRIDDIN AYNIY-NAVOIY IJODIY MEROSI TADQIQOTCHISI. *Alisher Navo'i and 21 st century*, 1(1).

БУХОРОДАГИ ШАЙХ САЙФИДДИН БОХАРЗИЙ МАҚБАРАСИДАГИ ЁГОЧ ЎЙМАКОРЛИК САҒАНАСИ (XIII – XIV АСРЛАР).

Жамшид Халилов
Бухоро давлат музей-кўриқхонаси
илмий ишлар бўйича директор ўринбосари
Умиджон Бақоев
Бухоро давлат университети магистранти
+998 97 304 00 39

Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, мутасаввуф, кубровия тариқати Бохарзия шоҳобчасининг асосчиси Сайфуддин Саъидж бин ал – Мутаҳҳар бин Саъид ал – Бохарзий Хуросондаги Бохарз қишлоғида туғилган. Илк саводини шу ерда чиқариб, кейинчалик Бухоро, Бағдод ва Нишопурда илмини давом эттириб, ҳаж сафарини амалга оширади. Сўнгра Бағдодда Шахобиддин Сухравардийдан, Хуросонда Али ат–Тусийдан дарс олади. Жалолиддин ал–Марғинонийдан унинг бобоси ёзган “Ҳидоя” асарини ўрганади, Бухорода Жамолиддин ал – Махбубий ва Шамсул – аимма (Имомлар қуёши) ал – Кардорий каби олимлар сұхбатидан фойдаланади. Бундан кейин Ҳиротга келиб, Тожиддин Махмуд ал–Ўшнухийдан сўфийлик ҳирқасини кияди. Сўнг Хоразмга келиб, Шайх Нажмиддин Куброда шогирд тушади. Кейинроқ шайх Кубронинг халифаси сифатида, мўғуллар босиб олган Бухоронинг Фатхобод махалласига ўрнашади. Воизлик қилиб, “Сахихи Бухорий” ҳадислари шарҳларидан таълим беради.

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

Yo'ldoshova Gulmira Samandar qizi, O.SH.Ahmadov. О'QUVCHI-YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA BUXORO JADID MA'RIFATPARVARLARINING TARIXIY MEROSI	293
Sharopov Dilshod Ravshan o'g'li. P.I.DEMEZON VA I.V.VITKEVICH ASARLARIDA BUXORO AMIRLIGI TARIXI MASALASI.....	295
Феруза Саъдуллаевна Амонова. БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ КРЕДИТ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИ.....	296
D.E. Saidova. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQIY NEGIZLAR (XIX-XX ASR).....	299
3-ШЎЬБА “БУХОРИЙ” ЛАРНИНГ ИЛМИЙ, ТАРИХИЙ ВА АДАБИЙ МЕРОСИ, УЛАРНИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАН ВА МАДАНИЯТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ	302
Қодирхон Маҳмудов. ИМОМ БУХОРИЙНИНГ “АЛ-ҚИРОАТУ ХАЛФАЛ ИМОМ” АСАРИ ТАЪРИФИ ВА ФИҚХИ	302
Qamariddinova Gulruk Akmal qizi. RASHAHOT – BUXORODAGI XO'JAGON TARIQATI ULUG'LARINING ILM YO'LI TO'G'RISIDAGI QIMMATLI MANBA	304
Шоназаров Абдувоси Абдибоқиевич. АБУ ЖАҲФАР ВАРРОҚ БУХОРИЙ ВА УНИНГ “ШАМОИЛИ БУХОРИЙ” РИСОЛАСИННИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАНИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ	306
A.N.Hakimova. IMOM AL-BUXORIY ILMIY MEROSINING JAON ILM-FANI VA MADANIYATGA TUTGAN O'RNI	309
Azimova Muhabbat Samadovna. BUXORIY IJODIDA BUXORO TARIXI MAVZUSI	311
4-ШЎЬБА ЖАҲОН МАДАНИЙ МЕРОСИ ТАРКИБИДА “БУХОРОДАГИ МУҚАДДАС ҚАДАМЖОЛАР, ЗИЁРАТГОҲЛАР, АЗИЗ АВЛИЁЛАР ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ ОБЪЕКТИ” СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ	315
Хамраев Азалшоҳ Ҳазратович. БУХОРОДАГИ ТУРКИ ЖАНДИ МАҚБАРАСИ ТАРИХИ	315
Rajabov Oybek Iskandarovich. HAZRAT KA'BUL AHBOR qadamjosi xususida.....	324
Жамшид Халилов, Умиджон Бақоев. БУХОРОДАГИ ШАЙХ САЙФИДИН БОХАРЗИЙ МАҚБАРАСИДАГИ ЁФОЧ ЎЙМАКОРЛИК САҒАНАСИ	326
Савриев Жасур Фахриддинович. “НАВОИЙ ВИЛОЯТИДАГИ МУҚАДДАС ҚАДАМЖОЛАР, ЗИЁРАТГОҲЛАР, АЗИЗ АВЛИЁЛАР ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ ОБЪЕКТИ”СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ	329
Ismoilova D.A., Biyev N.O. BUXORODAGI MUQADDAS QADAMJOLAR, ZIYORATGOHLAR, AZIZ AVLIYOLAR ZIYORAT TURIZMI OB'EKTI SIFATIDA	333
5- ШЎЬБА БХСР ВА СОВЕТ ДАВРИДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-ФАН,.....	335
Қаҳрамон Ражабов. ТУРКИСТОН ҚЎРБОШИЛАРИ ВА ЖАДИДЛАРИНИНГ МУСТАҚИЛЛИК УЧУН КУРАШИ.....	335
Темур Хўжаўғли БУХОРО ХАЛҚ ШЎРОЛАР ЖУМХУРИЯТИДАГИ ВАҶЕАЛАРНИНГ БЕШ ЖОНЛИ ГУВОХИ	337
Фарруҳ Темиров. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (БХСР) ДАВРИДАГИ ИЛМИЙ – ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Биринчи мақола	351
Фарруҳ Темиров. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (БХСР) ДАВРИДАГИ ИЛМИЙ – ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Иккинчи мақола	354
Бобожонова Феруза Хаятовна. БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА МАКТАБ МАСАЛАЛАРИ	357

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 20 нусха. Ҳажми 522 бет. Формат А4. Буюртма 256. 2024 йил.